

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligida Qabul-2024 bo'yicha olib borilayotgan ishlar va 1206 qisqa raqamli Call-markazi faoliyati bilan OAV vakillarini yaqindan tanishtirish maqsadida tashkil etilgan press-tur yuzasidan

PRESS-RELIZ

Joriy yilning 14-iyun kuni Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligida **Qabul-2024 doirasida olib borilayotgan ishlar va 1206 qisqa raqamli Call-markaz** faoliyati bilan OAV vakillarini yaqindan tanishtirish maqsadida press-tur tashkil etildi.

Bugungi kunda Agentlik tizimida **14 ta** Prezident maktabi, **9 ta** ijod maktabi hamda

182 ta ixtisoslashtirilgan maktab faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Shuningdek, 2024/2025-o'quv yilida **3 ta – Qashqadaryo viloyatida Ko'kdala tuman, Samarqand viloyatida Oqdaryo tuman hamda Namangan viloyatida Pop tuman** ixtisoslashtirilgan maktablari tashkil etiladi. Ushbu maktablarga hozirda hujjatlar qabul qilinmoqda.

Bundan tashqari joriy yilda **Nukus, Samarqand va Andijon shaharlarida** faoliyat ko'rsatib kelayotgan ixtisoslashtirilgan maktablar **Muhammad al-Xorazmiy nomidagi** ixtisoslashtirilgan maktabining filiallari sifatida qayta tashkil etildi.

2024/2025-o'quv yili uchun jami **8716 nafar**, jumladan, 14 ta Prezident maktabining

5-sinfiga 336 nafar, 9 ta ijod maktabining **7-sinfiga 420 nafar**, 182 ta ixtisoslashtirilgan maktabining **5- va 7-sinfiga 7960 nafar** o'quvchilar qabul qilinishi rejalashtirilgan.

Ushbu maktablarga o'quvchilar qabuli O'zbekiston Respublikasi **Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 27-maydagi 214-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomlar** asosida tashkil etilmoqda.

2024/2025-o'quv yili uchun Agentlik tizimidagi maktablarga o'quvchilar hujjatlarini qabul qilish hamda kirish imtihonlarini tashkil etish bo'yicha **Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 16-apreldagi 69-son yig'ilish bayoni** tasdiqlandi.

Unga ko'ra, maktablarga **hujjatlar qabuli joriy yilning 1-iyunidan 20-iyuniga qadar** amalga oshiriladi. Mazkur maktablarga **kirish imtihonlari esa iyul oyida o'tkazilishi** rejalashtirilgan.

Shuningdek, **10-may kundan** aholining Qabul-2024 jarayonlariga oid savollari, murojaatlariga tezkor javob berish maqsadida **har kuni soat 9:00dan 19:00gacha** ishlaydigan **1206 qisqa raqamli Call-markaz** faoliyati yo'lga qo'yildi.

Agentlik tizimidagi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabida joylashgan mazkur **Call-markazda ayni vaqtda 20 nafar operator kuniga o'rtacha 3000ga yaqin qo'ng'iroq va murojaatlarni** qabul qilmoqda.

Shuningdek, hujjatlar qabuli bo'yicha **operatorlar esa 80 nafar bo'lib**, ular hujjat topshirish bilan bog'liq **tahrirlash, tasdiqlash hamda rad etish** kabi vazifalarni bajarishmoqda.

Call-markazga eng ko'p kelib tushayotgan murojaatlar mazmuni asosan **hujjat topshirish tartibi, talabgor tomonidan hujjat onlayn topshirilganda yo'l qo'yilgan xatoni qanday tuzatish mumkinligi, tahrirlashga qaytarilgan hujjatlarni qanday tartibda tahrirlash lozimligi, qabul kvotalari, o'quvchilar bo'sh o'rinlari, joriy yilda ochilgan yangi ixtisoslashtirilgan maktablar, xususan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabining hududlardagi filiallariga oid savollarni tashkil etmoqda.**

Shuningdek, **Agentlik Axborot xizmati tomonidan** Qabul-2024 jarayonlariga oid **muhim ma'lumotlar, infografikalar, videorolik va videoqo'llanmalar** tizimli ravishda tayyorlanib, **tashkilotning veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali** muntazam e'lon qilib borilmoqda.

Ma'lumot o'rnida, Respublikamizdagi barcha Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktablarga hujjatlar qabuli **2024-yilning 20-iyun sanasigacha** davom etadi. Hujjatlar qabuli **ariza.piima.uz** sayti orqali **onlayn** tarzda amalga oshiriladi.

Shuningdek, hujjat topshiruvchilarga yanada qulaylik yaratish maqsadida Agentlik tizimidagi barcha maktablarda **malakali mutaxassislardan tarkib topgan maxsus ishchi guruhlar** faoliyati yo'lga qo'yilgan. Agentlik tizimida tashkil etilgan shu singari **205 ta maslahat shtabiga kuniga 1000dan ortiq o'quvchilar va ularning ota-onalari** kelib malakali mutaxassislar yordamida **ariza.piima.uz** sayti orqali onlayn ariza topshirmoqdalar.

Ma'lumot uchun, 14-iyun soat 09:00 holatiga ariza.piima.uz sayti orqali **142 609 ta hujjat kelib tushgan**, shundan **Prezident** maktablariga **40 202 ta**, **ijod** maktablariga **3 101 ta**, **ixtisoslashtirilgan** maktablarga **75 561 ta**, **Muhammad al-Xorazmiy** nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabi va uning **filiallariga** esa **23 745 ta hujjat** to'g'ri kelmoqda.

Axborot xizmati
(+99899 875-03-12)